

**ASTRONOMIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.05/2025.27.12.FM.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ASTRONOMIYA INSTITUTI

KARACHIK NINA VALEREVNA

**TOJ YORQIN NUQTALARINING IKKI TURI: QUYOSHNING KATTA
KO‘LAMLI VA MAHALLIY FAOLLIGI BILAN BOG‘LIQLIGI**

01.03.01 - Astronomiya

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по физико-
математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Science (DSc) on physical-
mathematical sciences**

Karachik Nina Valerevna

Toj yorqin nuqtalarining ikki turi: Quyoshning katta k’olamli va mahalliy
faolligi bilan bog‘liqligi..... 3

Карачик Нина Валерьевна

Два типа корональных ярких точек: связь с крупномасштабной и
локальной солнечной активностью..... 27

Karachik Nina Valerevna

Two types of coronal bright points: links to large-scale and local solar
activity 51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 57

**ASTRONOMIYA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.05/2025.27.12.FM.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ASTRONOMIYA INSTITUTI

KARACHIK NINA VALEREVNA

**TOJ YORQIN NUQTALARINING IKKI TURI: QUYOSHNING KATTA
KO'LAMLI VA MAHALLIY FAOLLIGI BILAN BOG'LIQLIGI**

01.03.01 - Astronomiya

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO'YICHA FAN DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Fizika-matematika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.DSc/FM319 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.astrin.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Egamberdiyev Shuxrat Abdumannapovich,
fizika-matematika fanlari doktori, O'zbekiston
Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi

Rasmiy opponentlar:

Ahmedov Bobomurat Jo'rayevich,
fizika-matematika fanlari doktori, O'zbekiston
Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi

Grigoryev Viktor Mixaylovich,
fizika-matematika fanlari doktori, professor, Rossiya Fanlar
akademiyasining muhbir a'zosi

Toshmatov Bobir Abdumanonovich,
fizika-matematika fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

**Rossiya Fanlar akademiyasining Qrim Astrofizika
Observatoriyasi, Rossiya**

Dissertatsiya himoyasi Astronomiya instituti huzuridagi PhD.05/2025.27.12.FM.08.01 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil "24" avgust soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100052, Toshkent shahri, Astronomiya ko'chasi, Astronomiya instituti. Tel.: (+99871) 235-81-02, faks: (+99871) 234-48-67, e-mail: info@astrin.uz).

Dissertatsiya bilan Astronomiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (100-D raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100052 Toshkent shahri, Astronomiya ko'chasi, 33-uy, O'zR FA AI. Tel.: (+99871) 235-81-02).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "10" avgust kuni tarqatildi.
(2026-yil "10" avgust dagi 4 - raqamli reestr bayonnomasi).

D.Sh. Fazilova,
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash
raisi o'rinbosari, f.-m.f.d., professor

K.E. Ergashev,
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD, katta ilmiy xodim

A.B. Abdikamalov,
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda hozirgi kunda Quyoshdagi toj yorqin nuqtalarni (TYN) o'rganish bo'yicha ishlar Quyosh-Yer aloqalari va kosmik ob-havo masalalariga bo'lgan global qiziqishning ortishi bilan bog'liq holda - alohida dolzarblik kasb etmoqda va bu Xalqaro Astronomiya Ittifoqi (XAI)¹ strategiyalarida ham aks etgan. Toj yorqin nuqtalar quyosh toji ichida sodir bo'layotgan jarayonlarning muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi va ular quyidagi quyosh faolligi namoyonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin: chaqnashlar, koronal massa tashlanmalari, quyosh shamolining tezlanishi. XAI quyosh faolligini va uning Yer magnitosferasiga ta'sirini o'rganish zarurligini ta'kidlaydi, chunki bu kosmik apparatlar, sun'iy yo'ldosh aloqasi va yer usti texnologiyalarini geomagnit bo'ronlardan himoya qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan toj yorqin nuqtalarni o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahondagi yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlarida toj yorqin nuqtalarni tadqiq etish ularning shakllanish va evolyutsiya mexanizmlarini aniqlash, magnit qayta ulanish jarayonlari, Quyosh toji qizishi hamda Quyosh shamolining hosil bo'lishidagi rolini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada yuqori fazoviy va vaqt bo'yicha aniqlikka ega kosmik kuzatuvlar asosida toj yorqin nuqtalarini avtomatik aniqlash usullarini ishlab chiqish, uzoq muddatli kataloglarni yaratish, ularning magnit maydonlar va quyosh faolligining boshqa namoyonlari bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda kosmik ob-havo modellarini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi. Biroq turli tipdagi toj yorqin nuqtalarning uzoq muddatli evolyutsiyasi, quyosh faolligi sikli davomida ularning fazoviy-vaqt bo'yicha taqsimlanish qonuniyatlari, global va lokal magnit maydon hosil bo'lish jarayonlari bilan bog'liqligi hamda shimoliy va janubiy yarimsharlardagi assimetriyasining fizik tabiati yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Shu sababli toj yorqin nuqtalarning turli tiplarini aniqlash, ularning evolyutsiyasi, quyosh faolligining boshqa namoyonlari bilan bog'liqligi hamda global va lokal dinamo jarayonlari bilan o'zaro aloqadorlik qonuniyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda kosmik faoliyatni hamda fundamental fanlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash hamda yuqori texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Shuningdek, «O'zbekiston – 2030» strategiyasida ilmiy salohiyatni mustahkamlash, kosmik faoliyatni rivojlantirish va zamonaviy ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda toj yorqin nuqtalarning fizik xususiyatlari, shakllanish mexanizmlari, uzoq muddatli

¹ IAU Strategic Plan 2020-2030. https://www.iau.org/static/administration/about/strategic_plan/strategicplan-2020-2030.pdf

evolyutsiyasi, global va lokal magnit maydon hosil bo'lish jarayonlari hamda quyosh faolligining boshqa ko'rinishlari bilan bog'liqlik qonuniyatlarini aniqlash, shuningdek kosmik ob-havo modellarining aniqligini oshirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni², 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risidagi Farmoni³, 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son «Fizika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori⁴, 2025-yil 13-yanvardagi O'RQ-1017-son «Kosmik faoliyat to'g'risida»gi Qonuni⁵, shuningdek, mamlakatda fundamental fanlarni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, zamonaviy ilmiy infratuzilmani takomillashtirish, yuqori malakali ilmiy kadrlarni tayyorlash, xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish hamda kosmik texnologiyalar va kosmik tadqiqotlarni rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlari va konsepsiyalarida belgilangan ustuvor yo'nalishlar doirasidagi vazifalarni amalga oshirishga, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalar rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026 yillarga mo'ljallangan” Farmonida, 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-sonli “Fizika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” Qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 13 yanvarda imzolangan “Kosmik faoliyat to'g'risida”gi O'RQ-1017-sonli Qonunida⁵ belgilangan maqsadlarga va ushbu faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Quyosh faolligi, tojning tuzilishi va dinamikasi, toj yorqin nuqtalari, toj teshiklari hamda ularning quyosh faolligining boshqa namoyonlari bilan o'zaro bog'liqligini o'rganish bilan dunyoning ko'plab yetakchi ilmiy va ta'lim markazlari shug'ullanadi, jumladan, AQShda - Milliy Quyosh observatoriyasi, Milliy atmosfera tadqiqotlari markazi, Garvard-Smitson astrofizika markazi, Kembrij, Kolumbiya universitetining Kolumbiya astrofizika laboratoriyasi, Montana shtati universiteti, Nyu-Meksiko shtati universiteti. Rossiyada - Rossiya Fanlar akademiyasi Sibir bo'limining Quyosh–Yer fizikasi instituti, Rossiya Fanlar akademiyasining Bosh (Pulkovo) astronomik observatoriyasi, Rossiya Fanlar

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>

⁴ <https://lex.uz/docs/-5338558>

⁵ O'zbekiston Respublikasining Qonuni «Kosmik faoliyat to'g'risida», 13.01.2025 yildagi O'RQ-1017-son <https://lex.uz/uz/docs/-7319204>

akademiyasining N.V. Pushkov nomidagi Yer magnitizmi, ionosfera va radioto'liqlar tarqalishi instituti, Rossiya Fanlar akademiyasining Qrim astrofizika observatoriyasi. Yevropada - Quyosh tizimini o'rganish bo'yicha Maks Plank instituti (Germaniya), Zagreb universitetining Xvar observatoriyasi (Xorvatiya), Graz universiteti fizika instituti (Avstriya), Kanar orollari astrofizika instituti (Ispaniya), Matematik plazma astrofizikasi markazi (Belgiya), Oslo universitetining Rosseland quyosh fizikasi markazi (Norvegiya), Sent-Endryus universitetining matematika va statistika maktabi (Buyuk Britaniya), Aberistuit universiteti hamda Uorik universitetining termoyadro sintezi, kosmos va astrofizika markazi (Buyuk Britaniya). Xitoyda - Pekin universitetining Yer va kosmik fanlar fakulteti, Xitoy milliy astronomik observatoriyasi, Shandun Szyatong universiteti, Purpurlik tog' observatoriyasi, Shandun universitetining kosmik fanlar instituti. Shuningdek, Seul milliy universitetining fizika va astronomiya kafedrası (Koreya Respublikasi), Hindiston kosmik fanlar bo'yicha ilg'or tadqiqotlar markazi va Hindiston astrofizika instituti (Hindiston), Milliy astronomik observatoriya va Suginami ilmiy markazi (Yaponiya), Zanzan universiteti (Eron), Yevgeniy Xaradzye nomidagi Gruziya milliy astrofizika observatoriyasi (Gruziya), O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Ulug'bek nomidagi Astronomiya instituti va boshqalar.

Ushbu tadqiqot sohasi bo'yicha yetakchi mutaxassislar qatoriga Golub L., Krieger A.S., Harvey K.L., Vaiana G.S., Habbal Sh.R., Withbroe G.L., Sheeley N.R., Longcope D., Aver E., Kankelborg C., Pevtsov A.A., McAteer J., Boucheron L.E., Osorno M., Malanushenko A.V., Saar S., DeLuca E., Weber M., McIntosh S.W. (AQSh); Nagovitsin Yu.A., Obridko V.N., Tlatov A.G., Abramenko V.I., Tsap Yu.T., Yazev S.A., Kutsenko A.S., Plotnikov A.A., Zagaynova Yu.D., Kashapova L.K. (Rossiya); Madjarska M.S., Sudar D., Brajša R., Skokić I., Temmer M., Kraus I., Bourdin P., Ramsey B., Morgan H., Verwichte E., Nóbrega-Siverio D., Moreno-Insertis F., Van Doorselaere T., Wiegelmann T., Mackay D.H., Galsgaard K. (Yevropa); Gao Y., Tian H., Chen Y., Xie H., Li D., Ning Z., Su Y., Huang Z., Xia L., Li B., Fu H., Jiao F., Hou Z. (Xitoy) va boshqalar kiradi.

TYN XX asrning 60-yillari oxiri - 70-yillari boshida kashf etilganidan buyon Quyosh fizikasi sohasidagi olimlar e'tibor markazida bo'lib kelmoqda va hozirgi kungacha faol o'rganilmoqda. Ularning fizik xususiyatlari (o'lchami, temperaturasi, yashash vaqti va boshqalar), fotosferadagi magnit bipollar bilan bog'liqligi, ularning umumiy sonining quyosh sikli fazalariga bog'liq ravishda o'zgarishi va boshqa masalalar yetarli darajada o'rganilgan. TYN shakllanishi uchun turli xil modellar taklif qilingan.

Toj yorqin nuqtalari haqidagi yangi bilimlar asosan SkyLab, Yohkoh, SOHO, TRACE, Hinode, STEREO, SDO va boshqa kosmik observatoriyalarni uchirish natijasida kengayib bordi. Fazoviy va vaqt bo'yicha tobora ortib borayotgan aniqlikdagi ma'lumotlar hamda turli to'liqlar uzunliklaridagi (radio diapazondan ultrabinafsha va rentgen diapazonigacha) kuzatuv ma'lumotlarini magnit maydonlar haqidagi

ma'lumotlar bilan solishtirish asosida toj yorqin nuqtalarining shakllanishi va evolyutsiyasining tobora realistik modellari ishlab chiqildi. Qisman TYN ning tojning umumiy energiya balansiga qo'shgan hissassi, magnit maydonning global sirkulyatsiya jarayonlaridagi roli, quyosh shamoli generatsiyasi hamda toj teshiklar va faol sohalar bilan bog'liqligi masalalari o'rganilgan.

Toj yorqin nuqtalarni va ularning quyosh faolligi bilan bog'liqligini o'rganishga o'zbek olimlari ham o'z hissasini qo'shganlar. Tojning rentgen diapazonidagi nuqtaviy tranzientlarini o'rganish bilan SSSRda birinchilardan bo'lib akademik Sh.A. Egamberdiev 80-yillar boshidayoq shug'ullangan, keyinchalik esa bu yo'nalishdagi ishlar professor I.S. Sattarov rahbarligidagi jamoa tomonidan davom ettirilgan. O'zbek tadqiqotchilari tomonidan olingan asosiy natijalar quyidagilardan iborat: yorqin rentgen nuqtalarining xromosfera to'ri yacheykalariga nisbatan lokalizatsiyasi aniqlangan; Yohkoh, SOHO, SDO va boshqa apparatlar yordamida olingan Quyoshning raqamli tasvirlarida TYN ni avtomatik aniqlash usuli ishlab chiqilgan; TYN umumiy sonining quyosh faolligi sikli bilan o'zgarish egri chizig'i olingan; ushbu egri chiziqning quyosh faolligi sikli bilan antikorrelyatsiyasi faqat ko'rinish effekti bilan emasligi ko'rsatilgan; TYN harakatini kuzatish orqali tojning differensial aylanishi o'rganilgan va hokazo.

Mazkur mavzuga bo'lgan qiziqish susaymaganiga qaramay, ko'plab masalalar hanuzgacha ochiq qolmoqda va faol tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday masalalarga quyidagilar kiradi: TYN ning quyosh faolligining global jarayonlaridagi roli, toj teshiklari bilan o'zaro ta'siri, tojning qizishiga va quyosh shamolining tezlanishiga qo'shgan hissassi, TYN ning faol sohalar, supergranulyatsiya yacheykalari va tolalar bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti va Toshkent davlat pedagogika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari doirasida quyidagi ilmiy loyihalar asosida bajarilgan: EΦ-ΦA-Φ006 «Quyosh tojining kichik masshtabli tuzilmalarining katta masshtabli magnit maydon bilan bog'liqligini o'rganish» (2016-2017); F-6-14 «Quyoshdagi magnit maydonlarning topologiyasi va rivojlanish dinamikasini o'rganish» (2014-2015); OT-Φ2-007 «Toj yorqin nuqtalarning evolyutsiyasi va nurlanish mexanizmini ilmiy-uslubiy o'rganish» (2012-2016); VA-FA-F-2-009 «Quyosh faolligi: toj yorqin nuqtalarning tuzilishi va evolyutsiyasi, ularning lokal magnit maydonlar bilan bog'liqlik mexanizmi» (2017-2020).

Tadqiqotning maqsadi Quyosh faolligi darajasiga bog'liq holda TYNning shakllanish qonuniyatlari va ularning fazoviy-vaqt taqsimotini aniqlash, ularning quyosh faolligi jarayonlaridagi rolini baholash, jumladan quyosh shamolining tezlanishidagi ishtiroki, toj teshiklari va faol sohalar bilan bog'liqligi, shuningdek turli

masshtablardagi magnit maydonlar evolyutsiyasiga qo'shgan umumiy hissasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot vazifalarini quyidagi bloklarga ajratish mumkin:

Quyosh tojining kichik masshtabli tuzilmalarini o'rganish, ya'ni:

- Toj yorqin nuqtalarining xususiyatlarini statistik tahlil qilish va ularni tiplashtirish uchun mumkin bo'lgan qonuniyatlarni aniqlash;
- turli tipdagi Toj yorqin nuqtalarining fazoviy-vaqt taqsimotini o'rganish;
- Toj yorqin nuqtalari taqsimotidagi shimol-janub assimetriyasining xususiyatlarini o'rganish;
- turli tipdagi Toj yorqin nuqtalarining shakllanishi uchun mas'ul bo'lgan fizik mexanizmlarni taklif etish;

Toj yorqin nuqtalarning katta masshtabli tuzilmalar bilan bog'liqligini o'rganish:

- Toj yorqin nuqtalarning toj teshiklari va tez quyosh shamoli bilan bog'liqligini o'rganish;
- toj teshiklarining shakllanish mexanizmlarini va ularning quyosh faolligi sikllaridagi rolini o'rganish;
- Toj yorqin nuqtalarining quyosh faolligining boshqa namoyonlari, xususan quyosh dog'lari bilan bog'liqligini tahlil qilish;

Kuzatuv bazasi va instrumental validatsiya:

- turli omillarning, jumladan instrumental effektlarning, turli davrlarda quyosh faolligining asosiy namoyonlarini kuzatishga ta'sirini aniqlash;
- O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti arxividagi original kuzatuv ma'lumotlari asosida quyosh faolligining asosiy indeksleri bo'yicha elektron arxiv yaratish;
- Astronomiya instituti kuzatuvlar arxivi asosida quyosh faolligining uzoq davrli o'zgarishlarini o'rganish;

Tadqiqot obyekti ekstremal ultrabinafsha diapazonda kuzatiladigan quyosh toji hamda uning tuzilishini shakllantiruvchi magnit maydonlardan iborat.

Tadqiqot predmeti quyosh tojining kichik masshtabli tuzilmalari - toj yorqin nuqtalari (TYN), ularning evolyutsiyasi va tojdagi hamda quyosh atmosferasining quyi qatlamlaridagi boshqa tuzilmalar va jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligidan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida Quyoshning raqamli tasvirlarini qayta ishlashning zamonaviy usullari, vaqt qatorlarini tahlil qilishning matematik usullari, tasvirlarni konvolyutsiya (svyortka) qilish usullari, fotosferadagi magnit maydonni potensial manba-sirt maydoni (Potential Field Source Surface, PFSS) aproksimatsiyasi orqali ekstrapolyatsiya qilish usuli qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat, ilk bor:

statistik tahlil asosida toj yorqin nuqtalarini yorqin va xira turlarga ajratish metodikasi ishlab chiqilgan hamda ularni ajratish mezonini taklif qilingan, TYNlarining ikki turi mavjudligi fizik jihatdan asoslangan va ularning mos ravishda Quyosh global siklik hamda lokal turbulent dinamo jarayonlari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan;

SOHO kosmik observatoriyasi ma'lumotlari asosida TYNlarining turlari bo'yicha fazoviy-vaqt taqsimoti hamda ikki Quyosh siklidan ortiq davrdagi shimol–janub assimetriyasi aniqlangan, bunda yorqin TYNlarining Shpyorer qonuniga bo'ysunishi va quyosh dog'lari assimetriyasiga yaqin qonuniyatlarga ega ekanligi, xira TYNlari uchun esa bunday bog'liqlik kuzatilmasligi ko'rsatilgan hamda ularning shakllanishining ikki xil fizik mexanizmi mavjudligi asoslangan;

toj yorqin nuqtalari, toj teshiklari va tez Quyosh shamoli o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan, bunda tez Quyosh shamoli tezligining toj teshiklari umumiy maydoni bilan eng yuqori korrelyatsiyaga ega ekanligi, TYN esa Quyosh shamolini tezlashtirishning asosiy omili emasligi ko'rsatilgan;

faol sohalar qoldiqlarida izolyatsiyalangan nopolyar toj teshiklarining shakllanish xususiyatlari aniqlangan hamda Quyosh sikllari almashinuvida toroidal magnit maydondan poloidal magnit maydonga o'tishning muqobil mexanizmi taklif qilingan;

teleskop aperturasi, tarqoq yorug'lik va kuzatuvchining ko'rish xususiyatlarining kuzatiladigan quyosh dog'lari soni, ularning guruhlar soni va maydoniga ta'siri aniqlangan, tarixiy va zamonaviy quyosh kuzatuvlarini o'zaro taqqoslash imkonini beruvchi funksional bog'liqliklar olingan hamda ularning amaliy qo'llanishi asoslangan;

neytral chiziq bo'ylab magnit maydon gradientining quyosh tolalarining shakllanishiga ta'siri aniqlangan, tolalar mavjud va mavjud bo'lmagan hududlarning magnit xususiyatlari taqqoslangan hamda neytral chiziq bo'ylab magnit maydonning gorizontaal gradienti quyosh tolalari shakllanishini belgilovchi yagona omil emasligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

toj yorqin nuqtalarining maksimal intensivligiga asoslangan ularni yorqin va xira turlarga ajratish klassifikatsiyasi hamda avtomatik tasniflash metodikasi ishlab chiqilgan, ular uzoq muddatli kuzatuv ma'lumotlarini qayta ishlash va statistik tahlil qilishda qo'llanishi mumkin;

teleskop aperturasi, tarqoq yorug'lik va kuzatuvchining ko'rish xususiyatlariga bog'liq holda kuzatiladigan quyosh dog'lari soni, ularning guruhlar soni hamda maydonining o'zgarishini tavsiflovchi funksional bog'liqliklar olingan, ular tarixiy va zamonaviy quyosh kuzatuvlarini o'zaro taqqoslashda qo'llanishi mumkin;

Toshkentda olib borilgan quyosh kuzatuvlari asosida quyosh faolligining asosiy indekslarini o'z ichiga olgan elektron katalog yaratilgan va ochiq foydalanishga joylashtirilgan, u quyosh faolligining uzoq muddatli o'zgarishlarini hamda fanlararo tadqiqotlarni amalga oshirishda qo'llanishi mumkin;

Quyosh atmosferasining magnit tuzilishini tavsiflovchi neytral chiziq bo'ylab magnit maydon gradientining afzal qiymatlar diapazoni aniqlangan hamda Quyosh sikllari almashinuvida toroidal magnit maydondan poloidal magnit maydonga o'tishning muqobil mexanizmi taklif qilingan, ular Quyosh magnit maydonining evolyutsiyasini modellashtirishda qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishning turli zamonaviy usullaridan foydalanilganligi, kuzatuvchining ta'siri minimal darajada bo'lishi, natijalarni turli asboblardan - kosmik va yer usti - hamda turli diapazonlarda olingan ma'lumotlar bilan solishtirish, olingan natijalarni boshqa mualliflar natijalari bilan puxta tekshirish, shuningdek katta hajmdagi ma'lumotlardan uzoq vaqt oralig'ida foydalanilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati toj yorqin nuqtalarining tabiatiga oid tasavvurlarni rivojlantirish, ularning shakllanishining turli mexanizmlari mavjudligini asoslash bilan belgilanadi, bu esa quyosh tojidagi magnit tuzilmalarning evolyutsiya jarayonlarini, ularning quyosh faolligi sikllaridagi rolini va quyosh dinamo nazariyasiga qo'shgan hissasini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Olingan natijalar, shuningdek, toj teshiklarining shakllanish mexanizmlarini va ularning quyosh shamoli bilan bog'liqligini aniqlashtirishga, shuningdek, quyosh dog'lari kuzatuvlarining uzoq muddatli qatorlariga instrumental omillarning ta'sirini aniqlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati toj yorqin nuqtalarining aniqlangan xususiyatlari va ularning shakllanish sharoitlarini, shuningdek quyosh faolligining boshqa namoyonlari - toj teshiklari va tolalarni - quyosh tojining modellari aniqligini oshirish hamda kosmik ob-havo va Yerga yaqin kosmik fazoga ta'sir ko'rsatuvchi energiya va plazmaning keskin ajralishlarini yanada aniq prognoz qilishda qo'llash imkoniyati bilan belgilanadi. Toshkentda olingan noyob arxiv kuzatuvlariga asoslangan quyosh faolligining asosiy indeksleri bo'yicha yaratilgan elektron katalog quyosh faolligining uzoq muddatli tendensiyalarini o'rganish, Quyoshning Yer iqlimidagi global o'zgarishlarga ta'sirini tahlil qilish hamda quyosh faolligi bilan bog'liq boshqa fanlararo tadqiqotlarda qo'llanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Dissertatsiya doirasida olingan ilmiy natijalar asosida:

Koronal teshiklar ichidagi koronal yorqin nuqtalar va Quyosh shamoli o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga bag'ishlangan *Astrophysical Journal* jurnalida 2011-yilda chop etilgan "Solar Wind and Coronal Bright Points inside Coronal Holes" nomli maqolaga 21 ta iqtibos keltirilgan.

Faol oblastlar qoldiqlarida koronal teshiklarning shakllanish jarayonlarini tadqiq etishga bag'ishlangan *Astrophysical Journal* jurnalida 2010-yilda chop etilgan "Formation of Coronal Holes on the Ashes of Active Regions" nomli maqolaga 31 ta iqtibos keltirilgan.

Quyosh dog'lari va ularning guruhlari sonini aniqlashga teleskop aperturasi, tarqalgan yorug'lik hamda kuzatuvchining ko'rish xususiyatlari ta'sirini baholashga bag'ishlangan *Monthly Notices of the Royal Astronomical Society* jurnalida 2019-yilda chop etilgan "The Effect of Telescope Aperture, Scattered Light and Human Vision on Early Measurements of Sunspot and Group Numbers" nomli maqolaga 13 ta iqtibos keltirilgan.

Quyosh dog‘lari sonini qayta kalibrlash bo‘yicha xalqaro ilmiy hamkorlik doirasida tayyorlangan Solar Physics jurnalida 2023-yilda chop etilgan “Recalibration of the Sunspot-Number: Status Report” nomli maqolaga 72 ta iqtibos keltirilgan.

Koronal yorqin nuqtalarning ikki yarimshardagi soni va maydonining assimetriyasini tadqiq etishga bag‘ishlangan Monthly Notices of the Royal Astronomical Society jurnalida 2025-yilda chop etilgan “Hemispheric Asymmetry of Coronal Bright Point’s Number and Area over Solar Cycles 23–24” nomli maqolaga 4 ta iqtibos keltirilgan.

Magnit neytral chiziqlari gradientlari hamda filamentlarning shakllanish mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan Solar Physics jurnalida 2014-yilda chop etilgan “Properties of Magnetic Neutral Line Gradients and Formation of Filaments” nomli maqolaga 5 ta iqtibos keltirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari ma’ruzalar shaklida taqdim etilib, 30 dan ortiq xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti seminarlarida (2013–2023), Milliy Quyosh observatoriyasida (Sunspot 2010–2011 y., Boulder 2018-y., AQSh), Xitoy Fanlar akademiyasining Purpurlik tog‘ observatoriyasida (Nankin 2024-y., Xitoy), Xalqaro kosmik fanlar institutida xalqaro quyosh dog‘lari sonining vaqt qatorlarini qayta kalibrlash bo‘yicha ilmiy guruhning 2-yig‘ilishida (Bern 2019-y., Shveysariya) muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 50 dan ortiq ilmiy ishlar chop etilgan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan taqriz qilinadigan jurnallarda 22 ta ilmiy maqola, shulardan 16 tasi nufuzli xorijiy ixtisoslashgan nashrlarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 190 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot obyekti, predmeti va usullari aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni joriy etish va ishning aprobatyasi haqida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi bayon qilingan.

Dissertatsiyaning **birinchi bobida** Toj yorqin nuqtalarining kashf etilish tarixi, ularning kuzatiladigan xususiyatlari, morfologiyasi, shakllanish modellari bo‘yicha qisqacha sharh keltirilgan, shuningdek ushbu obyektlarni o‘rganish sohasidagi dolzarb muammolar va ochiq savollar shakllantirilgan.

TYN dastlab 1968-1973 yillarda raketa tajribalari davomida olingan Quyoshning to'liq diski rentgen tasvirlarida aniqlangan, keyinchalik esa SkyLab orbital observatoriyasi tasvirlarida kuzatilgan bo'lib, ular tinch quyosh tojining yuqori darajada notekisligini va ko'plab yorqin nuqtaviy tuzilmalar mavjudligini ko'rsatgan. Ushbu tuzilmalar aynan rentgen diapazonida aniqlanganligi sababli Yorqin Rentgen Nuqtalari (YRN) deb nomlangan. Keyinchalik shunga o'xshash tuzilmalar ekstremal ultrabinafsha va radio diapazonlarda ham aniqlangan bo'lib, bu turli kuzatuv namoyonlarini yagona "toj yorqin nuqtasi" termini ostida birlashtirishga imkon berdi.

Zamonaviy tasavvurlarga ko'ra, TYN qarama-qarshi magnit oqim konsentratsiyalarini bog'lovchi, bir-birining ustiga tushgan issiqroq va sovuqroq kichik masshtabli halqalardan tashkil topgan bo'lib, ular xromosfera to'rida supergranulyatsiya yacheykalari tutashgan joylarda kuzatiladi. TYN halqalari taxminan 5 daqiqa tartibidagi vaqt masshtabida tez rivojlanadi. Halqalar temperaturasi 1,2 dan 3,4 MK gacha oraliqda bo'ladi. TYN halqalarining asoslari xromosfera va o'tish sohasi temperaturalarida aniq ko'rinadi, halqalarning yuqori qismidagi plazma esa asosan koronal temperaturada nurlanish hosil qiladi.

TYNning yashash vaqti kuzatuv diapazoniga bog'liq holda o'zgaradi. EUV diapazonida (taxminan 1 MK da) ularning yashash vaqti odatda 20 soatdan kam bo'ladi. Rentgen diapazonida esa ular yanada qisqa yashash vaqtiga ega bo'lib, o'rtacha 11 soatni tashkil etadi. Shu bilan birga, YRNning yashash vaqti spektri qisqaroq davomiylilik tomon siljigan bo'lib, 48 soatdan ortiq yashaydigan YRN soni 2 dan 48 soatgacha yashaydiganlariga nisbatan 10 martadan ortiqqa kamroqdir. Ushbu holatni inobatga olib, YRNning (yoki rentgen diapazonidagi TYN) yashash vaqtini to'rt parametrlil quyidagi funksiya orqali ifodalash mumkin:

$$N(t) = N_s e^{-t/\tau_s} + N_l e^{-t/\tau_l}, \quad (1)$$

bu yerda N_s - qisqa yashash vaqtiga ega yorqin rentgen nuqtalar soni, N_l - uzoq yashovchi yorqin rentgen nuqtalar soni, τ_s va τ_l - mos ravishda qisqa va uzoq yashovchi yorqin rentgen nuqtalarining yashash vaqti. Bunda $\tau_s \approx 9$ soat, $\tau_l \approx 1,5$ kun, N_s/N_l nisbati esa taxminan 10 ga teng. Uzoqroq yashovchi TYN ko'proq faol sohalar kengliklarida, ya'ni $\pm 30^\circ$ da uchraydi va odatda - kattaroq TYN uzoqroq yashash vaqtiga ega bo'ladi.

TYN Quyosh atmosferasining noyob ixcham tuzilmalari bo'lib, quyosh faolligining shakllanishi va dinamikasiga faol ta'sir ko'rsatadi. Ko'p yillik tadqiqotlarga qaramay, ularning fizik tabiati va toj dinamikasi hamda quyosh faolligidagi roli bilan bog'liq masalalar hanuz to'liq hal etilmagan. TYN quyosh tojining umumiy tuzilishidagi roli, ularning quyosh dog'lari va toj teshiklari bilan bog'liqligi hamda quyosh faolligi mexanizmlarini tushunishdagi ahamiyati alohida ta'kidlangan.


Dissertatsiyaning **ikkinchi bobi** qo'llanilgan ma'lumotlar va usullar tavsifiga bag'ishlangan bo'lib, unda TYN avtomatik aniqlash uchun ishlab chiqilgan asosiy modifikatsiyalangan dastur bayon etilgan. Ushbu bobda TYN ikki populyatsiyaga ajratish uchun parametrlarni tanlashning asosiy shartlari va mezonlari keltirilgan.

Bobning birinchi paragrafida qo'llanilgan ma'lumotlar va usullar tavsiflangan. Tadqiqotda kosmik va yer usti observatoriyalaridan olingan ma'lumotlardan foydalanildi, xususan, SOHO kosmik observatoriyasining EIT va MDI uskunalari ma'lumotlari, ACE bortidagi SWEPAM uskunasi ma'lumotlari, SDO bortidagi AIA va MDI uskunalari ma'lumotlari, GONG, SOLIS, WDC-SILSO bazalaridagi ma'lumotlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Astronomiya instituti quyosh arxividagi kuzatuvlar.

Quyosh tojidagi magnit maydonini fotosferadagi magnit maydonining potensial manba-sirt maydoni (Potential Field Source Surface, PFSS) aproksimatsiyasi orqali ekstrapolyatsiya qilish asosida modellashtirish usulining qisqacha tavsifi berilgan. 1-rasmda PFSS usuli yordamida modellashtirilgan magnit maydonning namunasi keltirilgan.

Keyin turli aperturali teleskoplardan olingan tasvirlarni modellashtirish uchun qo'llanilgan tasvirlarni konvolyutsiya (svyortka) qilish usulining qisqacha tavsifi beriladi.


Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishning zamonaviy usullaridan foydalanish, shuningdek turli asboblardan yordamida olingan kuzatuvlarni solishtirish tadqiqot natijalarining ishonchliligi va aniqligini ta'minlaydi. Qo'llanilgan usullar ularning dolzarbligi va qo'yilgan vazifalarni hal etishdagi samaradorligiga asoslanib tanlangan hamda natijalarning yuqori aniqligi va ishonchliligiga erishishga yo'naltirilgan. Bunday kompleks yondashuv keyingi tahlilning to'g'riligini va xulosalarning asoslanganligini ta'minladi.



1-rasm. 2003-yil 4-aprel holati uchun PFSS usuli yordamida modellashtirilgan quyosh tojining magnit maydoni.

II bobning ikkinchi paragrafida Quyosh to‘liq diskining ekstremal ultrabinafsha tasvirlarida TYNni avtomatik aniqlash uchun modifikatsiyalangan dastur batafsil bayon etilgan. Ushbu jarayonning asosiy bosqichlari tavsiflangan.

Keyin TYNning shakllanish mexanizmlari va xususiyatlari turlicha bo‘lgan ikki alohida turining mavjudligi foydasiga dalillar keltiriladi hamda ushbu natijaning quyosh tojining fizikasi va quyosh faolligini prognoz qilish uchun ahamiyati muhokama qilinadi.




2-rasm. Quyosh faolligining 24-siklida (a) “yorqin” va (b) “xira” TYN sonining o‘zgarishi (o‘rtacha oylik qiymatlar, kvadratlar). Punktir chiziqlar — taqsimotlarning Gauss funksiyalari bilan approksimatsiyasi.

TYN maksimal intensivligiga qarab yorqin va xira turlarga ajratiladigan klassifikatsiya taklif etilgan. Xira va yorqin TYN siklining o‘zgarishida qarama-qarshi tendensiyalar aniqlangan. Sokin Quyosh bilan bog‘liq bo‘lgan xira TYN soni quyosh dog‘lari sikliga teskari proportsional ravishda o‘zgaradi, faol sohalarga tegishli yorqin TYN esa sikl bilan ijobiy korrelyatsiyani ko‘rsatadi. Xira TYNning kenglik bo‘yicha taqsimoti ularning Quyosh yuzasi bo‘ylab deyarli bir tekis taqsimlanganligini ko‘rsatadi, quyosh dog‘lari faoliyat kamarlariga mos keluvchi kengliklarda esa yorqin TYN sonining ortishini namoyon etadi.

Xira va yorqin TYN sonining o'zgarishi Gauss funksiyalari yordamida aproksimatsiya qilingan (2-rasmga qarang). Ushbu ikki funksiyaning yig'indisi quyosh faolligi maksimumi atrofida taxminan 30% ga kamayishni ko'rsatadi va shu bilan Toj yorqin nuqtalar sonining quyosh dog'lari soniga nisbatan teskari o'zgarishi haqidagi g'oyani qo'llab-quvvatlaydi. Taxmin qilinishicha, quyosh maksimumi davrida xira TYN sonining kamayishi asosan aralash qutblilikka ega bo'lgan sokin Quyosh hududlari maydonining kamayishi bilan bog'liq. Shuningdek, yorqin toj fonida TYNni aniqlash qiyinlashadigan ko'rinish effekti ham yuqori faollik davrlarida kuzatiladigan nuqtalar sonining kamayishiga o'z hissasini qo'shadi.

Beshinchi paragrafda har bir turdagi TYN va ularning umumiy sonining quyosh faolligining 23 va 24-sikllaridagi xatti-harakati o'rganilgan. Aniqlanishicha, 23-sikl ma'lumotlari asosida topilgan tendensiyalar 24-siklda ham kuzatiladi. Garchi 23 va 24-sikllarning maksimum yillarida TYNning umumiy soni unchalik o'zgarmasada (3% dan kam), har bir turining nisbiy hissasi sezilarli darajada farq qiladi.


Ehtimoliy sabab - 24-siklda faollik darajasining sezilarli pasayishidir. Yorqin Toj yorqin nuqtalar sonining quyosh dog'lari soni o'zgarishlariga nisbatan o'rtacha 1 oyga kechikishi aniqlangan (3-rasm), bu ushbu turdagi Toj yorqin nuqtalarning parchalanayotgan faol sohalar qoldiqlarida shakllanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.



3-rasm. Normallashtirilgan yorqin TYN soni (qizil) va quyosh dog'larining xalqaro sonining (qora) o'zgarishi.

Dissertatsiyaning **uchinchi bobida** ikki quyosh sikli davomida yorqin va xira TYNning fazoviy-vaqt taqsimotining statistik tahlili natijalari keltirilgan, ikki turdagi TYNning soni va maydonining shimol-janub assimetriyasi o'rganilgan, TYNning ikki turi mavjudligining qo'shimcha validatsiyasi berilgan hamda ularning global va lokal dinamo jarayonlari bilan bog'liqligiga asoslangan fizik talqini taklif etilgan.

Aniqlanishicha, yorqin TYN quyosh dog'lariga o'xshash fazoviy-vaqt taqsimotini namoyon etib, Shpyorer qonuniga bo'ysunadi. Ushbu qonuniyat 4-rasmda Maunderning "kapalaklar" diagrammasi ko'rinishida yaqqol tasvirlangan.



4-rasm. Yorqin Toj yorqin nuqtalarining fazoviy taqsimoti. Rang bilan har bir tasvirda mos kenglikda joylashgan yorqin Toj yorqin nuqtalarining o‘rtacha soni ko‘rsatilgan.

Xira TYN uchun bunday qonuniyat kuzatilmaydi, bu esa ularning shakllanishining ikki xil mexanizmi mavjudligini tasdiqlaydi.

Bobning uchinchi paragrafida TYNning turlari bo‘yicha umumiy soni va maydonining shimol–janub assimetriyasi tahlil qilingan. Tahlildan oldin shimol–janub assimetriyasining statistik ahamiyati baholangan. Buning uchun Styudentning t-kriteriyasi qo‘llanilgan bo‘lib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$T = \frac{\sum \frac{D_i}{n}}{\sqrt{(\sum D_i^2 - \frac{(\sum D_i)^2}{n}) / (n(n-1))}} \quad (2)$$

bu yerda D_i — juft qiymatlar farqi, n esa har bir guruhdagi elementlar soni bo‘lib, mos vaqt qatorini shunday guruhlarga ajratamizki, $(n-1)$ — erkinlik darajalari sonini bildiradi. Biz TYNning soni va maydoni bo‘yicha barcha ma’lumotlarni 27 ta guruhga ajratdik - 1996–2022-yillar oralig‘ida har bir yil uchun bittadan guruh. Har bir guruhda o‘rtacha 24 ta qiymat mavjud - har oy uchun ikkitadan qiymat. Barcha parametrlar guruhlarning 80 foizidan ortig‘ida statistik jihatdan ahamiyatli assimetriyani ko‘rsatdi.

Shimoliy va janubiy yarimsharlar uchun parametrlar farqi $(N-S)$ ko‘rinishidagi assimetriya indeksidan tashqari, normallashtirilgan assimetriya indeksi ham hisoblab chiqildi, uni quyidagicha yozish mumkin:

$$N_A = \frac{N-S}{N+S} \quad (3)$$

bu yerda N - shimoliy yarimshardagi TYNning umumiy soni yoki maydoni, S esa janubiy yarimshardagi TYNning soni yoki maydoni. 5-rasmda xira TYN va quyosh dog‘lari soni uchun normallashtirilgan assimetriya indeksining o‘zgarishi ko‘rsatilgan. Rasmdan ko‘rinib turibdiki, butun davr davomida (normallashtirilgan assimetriya

indeksi manfiy bo'lib qolgan holda) xira TYN soni doimiy ravishda janubiy yarimsharda yuqori, faqat 2014 yildagi qisqa davr bundan mustasno. Bu holat quyosh dog'laridan farq qiladi, ularda ustun yarimshar o'rtacha besh martadan ko'proq almashadi.

Umumiy son hamda maydon bo'yicha sezilarli assimetriya kuzatilishi ko'rsatildi. Yorqin TYN umumiy son va assimetriya o'zgarishlarini namoyon etib, faol sohalar o'zgarishlarini aks ettiradi, bu esa bunday TYN kichik masshtablarda bo'lsa-da, o'xshash mexanizmlar orqali shakllanadigan miniatyura faol sohalar ekanligi haqidagi gipotezani tasdiqlaydi. Xira TYNning 11 yillik quyosh sikliga bog'liq bo'lmagan bir tekis assimetriyasi quyosh dinamosining siklga bog'liq bo'lmagan (yoki uzoqroq davr bilan bog'liq) komponentasi mavjudligi haqidagi gipotezani qo'llab-quvvatlashi mumkin, xususan butun Quyosh bo'ylab kichik masshtabli dipollarni bir tekis hosil qiluvchi kichik masshtabli turbulent dinamo bilan bog'liq.




5-rasm. Xira TYN (qora rangda) va quyosh dog'lari soni (yashil rangda) uchun normallashtirilgan assimetriya indeksining o'zgarishi.

III bobning to'rtinchi paragrafida TYNning ikki xil populyatsiyasi mavjudligini kichik masshtabli magnit elementlarni klassifikatsiya qilish uchun ishlab chiqilgan usul yordamida mustaqil tekshirish amalga oshirilgan. 1996–2020 yillar uchun EIT/SOHO ma'lumotlari asosida intensivlik bo'yicha ajratilgan 80 ta kichik guruh uchun vaqt qatorlari tuzilgan. Keyin quyosh dog'lari soni va har bir kichik guruhdagi TYN soni o'rtasidagi chiziqli korrelyatsiya koeffitsiyentlari hisoblab chiqilgan. Har bir kichik guruh intensivligiga bog'liq holda koeffitsiyentlar taqsimoti natijalari 6-rasmda keltirilgan. Har bir kichik guruhdagi TYN soni va quyosh dog'lari soni o'rtasidagi korrelyatsion tahlil uchta kategoriya mavjudligini ko'rsatdi: quyosh sikli bilan ijobiy korrelyatsiyalanuvchi, antikorrelyatsiyalanuvchi va korrelyatsiyalanmaydigan TYN.

Ushbu tuzilma fotosferadagi magnit maydonlar uchun avval aniqlangan magnit elementlarning ikki populyatsiyasi xatti-harakati bilan to'liq mos keladi.

Olingan bog'liqliklar Toj yorqin nuqtalarining ikki turi mavjudligini tasdiqlaydi: soni quyosh faolligi sikliga mos ravishda ortib boradigan yorqin Toj yorqin nuqtalari va soni sikl bilan antikorrelyatsiyalanadigan yoki aniq bog'liqlikni namoyon etmaydigan xira Toj yorqin nuqtalari. O'tish guruhiga kiruvchi Toj yorqin nuqtalari aralash xususiyatlarni namoyon etadi, biroq ularning hisssasi kichik bo'lib, umumiy xulosaga ta'sir qilmaydi. SDO bortidagi AIA ma'lumotlari asosida bajarilgan tahlil aniqlangan qonuniyatlarning barqarorligini tasdiqladi. Shunday qilib, o'tkazilgan validatsiya Toj yorqin nuqtalarining ikki populyatsiyasi mavjudligini ishonchli tarzda tasdiqlaydi va 23 va 24-sikllarda ularni ajratish uchun intensivlikning miqdoriy chegaralarini belgilaydi.



6-rasm. 23 va 24-quyosh sikllari uchun quyosh dog'lari soni va TYN soni o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari. Punktir chiziqlar ijobiy korrelyatsiyalangan, antikorrelyatsiyalangan va korrelyatsiyalanmagan (yoki o'tish) guruhlarni ajratish uchun qabul qilingan $|r| = 0.5$ chegarani ko'rsatadi.

III bobning beshinchi paragrafida TYN ikki turining fizik talqini keltirilgan. Yorqin TYNni global siklik dinamo ta'sirida yuzaga keladigan faol sohalar qoldiqlari va efemer bipollarni o'z ichiga olgan kuchliroq magnit elementlar bilan bog'lash taklif etilgan. Ularning soni quyosh dog'lari soni bilan ijobiy korrelyatsiyalanadi va undan biroz kechikadi, bu esa yorqin TYNning faol sohalar parchalanish bosqichida shakllanishi bilan mos keladi.

Xira TYN 11 yillik sikldan mustaqil ravishda ishlaydigan lokal turbulent dinamo tomonidan generatsiya qilinadigan kuchsiz magnit elementlar bilan bog'lanadi. Ushbu TYN quyosh dog'lari bilan zaif yoki manfiy korrelyatsiyani namoyon etadi, Quyosh diski bo'ylab nisbatan bir tekis taqsimlanadi va ularning dinamikasi kichik masshtabli jarayonlar bilan belgilanadi.

23 va 24-sikllarda TYN xatti-harakatini taqqoslash shuni ko'rsatdiki, kuchsiz 24-siklda global dinamo samaradorligining pasayishi yorqin TYN sonining kamayishiga va turli populyatsiyalarga mos keluvchi intensivlik chegaralarining siljishiga olib kelgan. Aniqlangan qonuniyatlar global va lokal dinamo birgalikda ta'sir qiladigan uch o'lchamli modellarga yaxshi mos keladi, ularga ko'ra kichik masshtabli magnit maydon ikki dinamo mexanizmining hissalarini nisbatiga qarab katta masshtabli sikl bilan ham korrelyatsiyalanishi, ham antikorrelyatsiyalanishi mumkin.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi TYNning quyosh tojining boshqa muhim tuzilmalari - toj teshiklari (TT) bilan o'zaro ta'siriga bag'ishlangan. Birinchi paragrafda izolyatsiyalangan toj teshiklarining shakllanish mexanizmlaridan biri ko'rib chiqilgan. Ko'rib chiqilgan TT faol sohalarning parchalanish joylarida hosil bo'lgani ko'rsatildi. Shunday holatlardan biri 7-rasmda keltirilgan.

Ko'rib chiqilgan barcha TT shakllanish holatlari uchun quyidagi parametrlar hisoblab chiqildi: ijobiy va manfiy qutblilikdagi vertikal magnit oqim B_z , lokal sirtga urinma tekislik orqali o'tuvchi umumiy belgisiz oqim, oqim disbalansi, shuningdek kompaktililik. Kompaktililik o'lchovi sifatida magnit qutblilikning uning magnit oqimi bo'yicha og'irlangan samarali radiusi ishlatildi.

Radius ijobiy/manfiy oqimning og'irlik markaziga nisbatan hisoblandi. Kichikroq r_{eff} oqimning yanada kompaktroq taqsimlanganligini ko'rsatadi:


$$r_{eff}^2 = \frac{1}{S} \sum ((x - \bar{x})^2 + (y - \bar{y})^2) B_z(x, y), \quad (4)$$

bu yerda $S = \sum B_z(x, y)$ hamda manfiy (musbat) qutblilikka ega B_z pikselarining o'rtacha koordinatalari $\bar{x}, \bar{y}$.

Aniqlanishicha, faol sohalar parchalanishi jarayonida ikki qutblilikning tarqalish tezligidagi farq parchalanayotgan faol sohalar qoldiqlarida magnit oqim disbalansiga olib keladi va izolyatsiyalangan toj teshiklarining hosil bo'lishiga sabab bo'ladi. Ushbu jarayon natijasida bipolyar faol soha topologiyasi E-W yo'nalishidan TTlarda N-S yo'nalishiga o'tadi, bu esa toroidal magnit maydonning poloidal maydonga transformatsiyasini ko'rsatishi mumkin. Bunday transformatsiya Quyosh siklining Babcock-Leighton modeli doirasidagi fenomenologik model uchun zarur bo'lib, biz yuqorida qayd etilgan evolyutsiyani quyosh minimumi davrida yoki 24-sikl boshida kuzatamiz. Bizning kuzatuvlarimiz yopiq oqim tizimlarining magnit bog'lanishi qanday o'zgarishi mumkinligini va oqim ilgari mustaqil bo'lgan tizimlar o'rtasida qanday transformatsiyalanishini yaqqol ko'rsatadi.

Toj teshiklarining magnit maydonini PFSS usuli yordamida modellashtirish shuni ko'rsatdiki, ko'rib chiqilgan barcha misollarda izolyatsiyalangan toj teshiklarining magnit chiziqlari asosan shimoliy qutb teshigiga tutashadi, biroq bir holatda ochiq chiziqlar ham mavjud. Ushbu davrda qutb maydonlarining barqaror disbalansi kuzatilgan: shimoliy qutb (manfiy qutblilik) magnit maydoni janubiy qutbnikidan kuchliroq bo'lgan. Izolyatsiyalangan toj teshiklarining shimoliy qutb teshigi bilan tutashuvi shimoliy qutbda ortiqcha ochiq oqimni kamaytirishga va shu orqali Quyoshdagi magnit oqimning global muvozanatini saqlashga xizmat qiladi.

Keyingi qadamda tez quyosh shamoli tezligining TT maydoni va ularning ichidagi TYN soni bilan korrelyatsiyasi o'rganildi. Har bir TT uchun turli parametrlar hisoblab chiqildi, jumladan tasvir tekisligidagi TTning umumiy maydoni (hech qanday cheklovlarsiz), deproyeksiya qilingan maydoni (Quyosh yuzasida kvadrat graduslarda) va toj teshigi ichidagi barcha pikselarning umumiy intensivligi. 1-jadvalda quyosh shamoli tezligi (V_{SW}) bilan toj teshigi maydoni (A_{CH}), toj teshigining integral intensivligi (I_{CH}), toj teshigi ichida TYN egallagan maydon (A_{CBP}), toj teshigi ichidagi Toj yorqin nuqtalarining integral yorqinligi (I_{CBP}), toj teshigi chegarasini aniqlash uchun qo'llanilgan chegaraviy qiymat (L_{CH}) va Quyosh diskining umumiy yorqinligi (I_{FD}) o'rtasidagi Spirmen va Pirson korrelyatsiya koeffitsiyentlari keltirilgan. Korrelyatsiya koeffitsiyentlari toj teshigi chegaralarini aniqlashning yarim avtomatik hamda avtomatik (qavs ichida "a" belgisi bilan ko'rsatilgan) usullari uchun alohida berilgan.



7-rasm. Magnit maydonlar (chap ustun) va tasvirlar (o'ng ustun) uchta quyosh aylanishi davomida AR 11017 faol sohaning evolyutsiyasini ko'rsatadi: 2009 yil 16 may (a va b panellar), 2009 yil 12 iyun (c va d) va 2009 yil 9 iyul (e va f). Magnitogrammalarda oq (qora) yarimtonlar musbat (manfiy) qutblilikdagi magnit maydonga mos keladi. (e) paneldagi qora uzluksiz chiziq (f) panelda ko'rsatilgan toj teshigining tashqi chegarasini belgilaydi.

Besh parametr ichida TTning umumiy maydoni quyosh shamoli tezligi bilan eng kuchli korrelyatsiyani namoyon etadi. Korrelyatsiya tasvir tekisligida o'lchangan maydon (A_{CH}) uchun deproyeksiya qilingan maydon ($A_{CH} \text{ (deg)}$) ga nisbatan yuqoriroqdir. Bu holatni biz quyidagicha talqin qilamiz: toj teshiklarning past kengliklardagi qismlari ekliptika tekisligida kuzatiladigan quyosh shamoliga yuqori kengliklardagi qismlarga qaraganda ko'proq hissa qo'shadi. Har bir korrelyatsiyaning mustaqilligini tekshirish uchun biz multikorrelyatsiya imkoniyatini quyidagi ko'rinishda tahlil qildik:

$$V_{SW} = f(A_{CH}, I_{CH}), \quad (5)$$

bu yerda f - ikki parametrlarning chiziqli funksiyasi, ushbu holatda toj teshigining maydoni va TTning umumiy intensivligi.

Multikorrelyatsion tahlil natijasida olingan korrelyatsiya V_{SW} va A_{CH} yoki I_{CH} o'rtasidagi korrelyatsiyadan kuchliroq emasligi aniqlandi. Shunday qilib, biz quyidagi xulosaga kelamiz: quyosh shamoli tezligi va toj teshigi maydoni o'rtasidagi korrelyatsiya birlamchi hisoblanadi, V_{SW} va I_{CH} o'rtasidagi korrelyatsiya esa toj teshik maydoni va intensivligi o'rtasidagi o'zaro korrelyatsiya natijasidir.

1-jadval. Quyosh shamoli tezligi va boshqa parametrlar o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari.

Parameters	Spearman's Rank Correlation Coefficient	Significance of Its Deviation from Zero	Linear Pearson Correlation Coefficient
V_{SW} vs. A_{CH} (deg)	0.480	1.4×10^{-7}	0.494
V_{SW} vs. A_{CH}	0.561 (0.553) ^a	2.7×10^{-10}	0.546 (0.492) ^a
V_{SW} vs. I_{CH}	0.479 (0.465) ^a	1.6×10^{-7}	0.452 (0.343) ^a
V_{SW} vs. $ACBP_s$	0.327 (0.422) ^a	5.6×10^{-4}	0.305 (0.295) ^a
V_{SW} vs. $ICBP_s$	0.383 (0.408) ^a	4.3×10^{-5}	0.327 (0.246) ^a
V_{SW} vs. $f(A_{CH}, I_{CH})$	0.471 (0.447) ^a	2.7×10^{-7}	0.445 (0.318) ^a
A_{CH} (deg) vs. I_{CH}	0.837	1.7×10^{-29}	0.831
A_{CH} vs. I_{CH}	0.892 (0.945) ^a	2.3×10^{-38}	0.915 (0.921) ^a
A_{CH} vs. L_{CH}	-0.037	7.0×10^{-1}	0.026
A_{CH} vs. $ACBP_s$	0.649 (0.865) ^a	3.1×10^{-14}	0.744 (0.851) ^a
A_{CH} vs. $ICBP_s$	0.775 (0.894) ^a	8.1×10^{-23}	0.801 (0.838) ^a
A_{CH} vs. I_{FD}	-0.051	6.0×10^{-1}	0.031
I_{FD} vs. L_{CH}	0.855	5.5×10^{-32}	0.880
I_{FD} vs. I_{CH}	0.304	1.4×10^{-3}	0.331
I_{FD} vs. $ICBP_s$	0.335	3.9×10^{-4}	0.360
I_{CH} vs. $ICBP_s$	0.888	1.7×10^{-37}	0.923
I_{CH} vs. L_{CH}	0.356	1.5×10^{-4}	0.374

Uchinchi paragrafda quyosh shamoli tezligi va toj teshigi maydoni o'rtasidagi korrelyatsiya quyosh faolligi darajasiga bog'liq holda o'rganilgan, to'rtinchi paragrafda esa TYNning quyosh shamolini tezlashtirishdagi roli ko'rib chiqilgan. Ko'rsatilidiki, TYN toj teshiklaridan chiqayotgan quyosh shamolini tezlashtirishning asosiy omili emas.

